

**AHOLI VA HUDUDLARNI FAVQULODDA VAZIYATLARDAN MUHOFAZA  
QILISHGA OID QONUN VA QONUNOSTI HUJJATLARNING MAZMUNI VA  
MOHIYATI**

**Muradov Sirojiddin**

**Tog' A'ev Jamshid**

**Xujaqulov Abdulaziz**

**Karimov Bohodir**

**Siddiqova Madinabonu**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti  
“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi”

kafedrası o'qituvchilari

Qarshi, O'zbekistan

[sirojiddinmuradov0@gmail.com](mailto:sirojiddinmuradov0@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11162766>

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasi 1999 yil 20 avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida”gi qonunning qabul qilinishi, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini og'ishmay amalga oshirish, haqiqiy xavf-xatar manbalarini va ularning tabiatini anglab etish har bir kishiga o'zini yuz berishi mumkin bo'lgan avariya, halokat, tabiiy ofatlardan muhofaza qilinganini sezish imkoniyatini beradi. Maqola mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yunalishlari talablari, mehnat muhofazasi va xavfsizlik mutaxassisleri hamda keng izlanuvchilar uchun muljallangan.

**Kalit so'zlar va iboralar:** “Fuqaro muhofazasi, fuqarolarning huquq va majburiyatlari, texnogen.”

**CONTENT AND ESSENCE OF THE LAW AND LEGAL DOCUMENTS ON THE  
PROTECTION OF THE POPULATION AND TERRITORIES FROM EMERGENCIES**

**Abstract.** In the article, the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan on August 20, 1999 "On the Protection of Population and Territories from Natural and Man-made Emergency Situations", consistent implementation of state policy in the field of emergency protection, real sources of danger and understanding their nature gives everyone the opportunity to feel that he is protected from possible accidents, disasters, and natural disasters. The article is intended for the requirements of labor protection and technical safety directions, labor protection and safety specialists, and general readers.

**Key words and phrases:** "Civil protection, rights and obligations of citizens, man-made."

**СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ЗАКОНА И ПРАВОВЫХ ДОКУМЕНТОВ О  
ЗАЩИТЕ НАСЕЛЕНИЯ И ТЕРРИТОРИЙ ОТ ЧС**

**Аннотация.** В статье принято Закона Республики Узбекистан от 20 августа 1999 года «О защите населения и территорий от чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера», последовательной реализации государственной политики в области чрезвычайных ситуаций. , реальная опасность Понимание источников опасности и их природы позволяет каждому чувствовать себя защищенным от возможных аварий, катастроф и стихийных бедствий. Статья предназначена для требований направлений охраны труда и технической безопасности, специалистов по охране труда и технике безопасности, а также широкого круга читателей.

**Ключевые слова и фразы:** «Гражданская защита, права и обязанности граждан, техногенная».

---

**KIRISH.**

So‘nggi yillarda Oliy Majlis tomonidan yangi asrda aholining xavfsizligini kafolatlovchi, fuqarolar mas’uliyati va jamiyat taraqqiyotining huquqiy zaminini belgilovchi bir nechta qonunlar qabul qilindi. “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”, “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”, “Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishining (OIV kasalliganing) oldini olish to‘g‘risida”, “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”, “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”, “Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida”, “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”, “Terrorizmga qarish kurash tug‘risida”gi qonunlar shular jumlasidandir.

YUqorida sanab o‘tilgan qonunlar ichida 1999 yil 20 avgustda qabul qilingan “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonun favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Ushbu qonun aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi hamda favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar keltiradigan talafotlarni kamaytirish va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni maqsad qilib qo‘yadi.

Qonunda davlat hokimiyati va boshqaruvining barcha darajadagi organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan aholini va hududlarni favqulodaa vaziyatlarda muhofaza qilishning asosiy tamoyillari, maqsadlari, vazifalari va usullari aniqlanib, mustahkamlab qo'yilgan. I bo'lim "Umumiy qoidalar" deb nomlanib, o'z ichiga 1-5-moddalarni oladi. Ularda qonunning asosiy maqsadi, favqulodda vaziyatlar bo'yicha asosiy tushunchalar, qonun hujjatlari, muhofazaning asosiy tamoyillari va favqulodda vaziyatlarga oid axborotlar qanday bo'lishi lozimligi ko'rsatib berilgan.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning asosiy tamoyillari insonparvarlik, inson hayoti va sog'ligining ustuvorligi; oshkoralik; axborotning o'z vaqtida berilishi va ishonchli bo'lishi; favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish choralarining oldindan ko'rilishidan iborat,

II bo'limda – "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishni ta'minlash tizimi" (6—14-moddalar) - muhofaza tizimini tashkil etuvchi organlar, ularning vazifalari haqida so'z yuritiladi. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi (FVDT), Vazirlar Mahkamasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning majburiyatlari belgilab berilgan.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organi Favqulodda vaziyatlar vazirligining vazifalari 8-moddada keltirilgan:

-favqulodda vaziyatlarning oldini olish, bunday vaziyatlarda aholi hayoti va sog'ligini, moddiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilish, shuningdek, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish va zararni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

-aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilishini tashkil etadi;

-o'z vakolati doirasida vazirlik va idoralar, korxona, muassasa va tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi;

-boshqaruv organlarining, aholini va hududlarni muhofaza qilish kuchlari va vositalarining favqulodda vaziyatlar sharoitida harakat qilishga tayyor bo'lishini tashkil etadi;

-favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari boshqaruvini amalga oshiradi, boshqaruv punktlari, xabar berish va aloqa tizimlarini tuzadi;

-favqulodda vaziyatlar sharoitida avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa ishlar o'tkazilishini tashkil etadi;

-aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlari bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

-ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlar bo'yicha loyihalar va qarorlar yuzasidan davlat ekspertizasi o'tkazilishida ishtirok etadi;

-qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

"Fuqarolarning huquq va majburiyatlari" deb nomlanuvchi III bo'lim qonunning asosiy bo'limi hisoblanadi. Chunki ushbu qonun umuman ayni insonni, uning hayotini, salomatligini va shaxsiy mulkini muhofaza qilishga qaratilgan. Bu bo'limda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari uzviy birlikda ko'rib chiqilgan.

20-25-moddalar qonunning IV bo'limi tashkil etadi. Bu bo'lim "Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish"ga bag'ishlangan bo'lib, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan kuch va vositalar, favqulodda vaziyatlar ro'y bergan zonalar chegarasi, qo'shimcha kuch va vositalar qайдan olinadi kabi savollarga javob beradi.

"Yakunlovchi qoidalar" deb nomlanuvchi V bo'lim moliyaviy va moddiy resurslarning zahiralarni barpo etish va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi. Bu erda shuningdek aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi qonunni buzganlik uchun tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar javobgar bo'lishlari ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi 1999 yil 20 avgustdagi "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat siyosatini og'ishmay amalga oshirish, haqiqiy xavf-xatar manbalarini va ularning tabiatini anglab etish har bir kishiga o'zini yuz berishi mumkin bo'lgan avariya, halokat, tabiiy ofatlardan muhofaza qilinganini sezish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi 2000 yil 26 maydagi "Fuqaro muhofazasi to'g'risidagi" qonun harbiy harakatlar olib borish davri masalalariga bag'ishlangan. Ushbu qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi.

Qonun V bo'lim va 23 moddalardan iborat. I bo'lim – "Umumiy qoidalar" - beshta moddani o'z ichiga olib, bu moddalarda fuqaro muhofazasining asosiy tushunchalari, vazifalari, qonun hujjatlari, ushbu qonunni buzganlik uchun javobgarlik va xalqaro hamkorlik to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

**Fuqaro muhofazasi** - harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan O'zbekiston Respublikasi aqolisini, hududlarni, moddiy va madaniy boyliklarini muhofaza qilish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlarning davlat tizimi.

Fuqaro muhofazasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-aholini harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash usullariga o'rgatish;

-ob'ektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash harakatlari va usullariga tayyorlash;

-boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish;

-iqtisodiyot ob'ektlarining barqaror ishlashini ta'minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o'tkazish;

-aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish;

-fuqaro muhofazasi harbiy tuzilmalarining shayligani ta'minlash;

-aholini umumiy va yakka muhofazalanish vositalari bilan ta'minlash tadbirlarini o'tkazish;

-aholining harbiy harakatlar olib borish paytidagi yoki shu harakatlar oqibatidagi hayot faoliyatini ta'minlash;

-radiatsion, kimyoviy va biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazorati olib borish;

-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish;

-harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida zarar ko'rgan hududlarda jamoat tartibini yo'lga qo'yish va saqlab turish;

-aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

"Fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, davlat organlari va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari" deb nomlangan II bo'limning asosiy maqsadi fuqaro muhofazasiga rahbarlikni amalga oshiruvchi fuqaro muhofazasi sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlari, vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat organlari, tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining vazifalari nimalardan iborat degan savollarga javob berishdan iborat.

Fuqaro muhofazasi sohasidagi fuqarolarning huquq va majburiyatlari III bo'limda keltirilgan. Fuqarolar o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirish uchun fuqaro muhofazasi

sohasida etarli bilimga ega bo'lishlari zarur. SHu sababli ham ularni fuqaro muhofazasi sohasida o'rgatish 1b-modda bilan umumiy va majburiy deb belgilab qo'yilgan.

IV bo'lim – “Fuqaro muhofazasi xizmatlari va kuchlari” - fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish uchun zarur xizmatlar va kuchlar, tuzilmalarning tarkibini aniqlab beradi.

Va nihoyat, V bo'lim “Fuqaro muhofazasini moliyaviy ta'minlash. Fuqaro muhofazasi ob'ektlari va mol-mulki” deb nomlangan. Bu bo'limda fuqaro muhofazasini moliyalash, fuqaro muhofazasi qo'shinlarining asosiy fondlari, ob'ektlari va mol-mulki masalasi ko'rib chiqilgan.

Ma'lumki, respublikamizda mavjud bo'lgan gidrotexnika inshootlarida avariya, halokat yuz bergudek bo'lsa, aholi va hududlarimizga ma'lum miqdorda xavf tug'dirishi mumkin. SHu sababli O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XV sessiyasida, ya'ni 1999 yil 20 avgustda qabul qilingan qonunlardan biri “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida” deb nomlandi.

Qonun 15 moddadan iborat. Ushbu qonunning maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ularni rekonstruksiya qilish, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunda gidrotexnika inshootlari, foydalanuvchi tashkilot, favqulodda vaziyat, gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi, xavfsizlik deklaratsiyasi, xavfsizlik mezonlari, gidrotexnika inshooti avariya xavfining yo'l qo'yiladigan darajasi kabi tushunchalarga ta'rif berilgan. Bundan tashqari qonunda Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari ko'rsatib berilgan hamda gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi ustidan davlat nazorati haqida so'z yuritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi katta va alohida muhim suv xo'jaligi ob'ektlarining texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish davlat inspeksiyasi gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'lishlari alohida belgilab qo'yilgan (15-modda).

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2000 yil 31 avgustda qabul qilingan “Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida”gi qonun alohida o'rin tutadi. Ushbu qonunning maqsadi radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog'ligi va mol-mulki, shuningdek, atrof muhitni

ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta'siridan muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Favqulodda vaziyatlar ichida o'zining keltiradigan kulfatlari bilan radiatsiyaviy avariylar alohida ajralib turadi. Boshqa turdagi favqulodda vaziyatlarning inson sog'ligiga keltiradigan zarari tezda ko'zga ko'rinmaydi. SHuning uchun ushbu qonun aholi hayoti va salomatligini muhofaza qilishda muhim o'rin tutadi.

Ushbu qonun V bo'lim va 28 modadan iborat bo'lib, ularda asosiy tushunchalarga ta'rif berilgan, radiatsiyaviy xavfsizlikni tartibga solish, radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashga qo'yiladigan talablar, radiatsiyaviy avariya sodir bo'lganda radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Qonunning I bo'limida ushbu qonunning maqsadi, qonunda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar, radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy tamoyillari, fuqarolarning radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi huquq va majburiyatlari, fuqarolarning ijtimoiy muhofazasi masalalariga o'rin berilgan.

Ikkinchi bo'lim "Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasini tartibga solish" deb nomlanadi va radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasi davlat tomonidan qanday tartibga solinadi, nazorat qanday olib boriladi, davlat ekspertizasi qanday bo'ladi kabi savollarga javob beradi. Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi davlat nazoratini sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasi amalga oshiradi (8-modda).

"Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlashga doir talablar" III bo'limda (12-22-moddalar) keltirilgan. Bo'limda tabiiy radionuklidlar ta'sir etish chog'ida, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda hamda ichimlik suvidan foydalanishda, tibiiy rentgenoradiologik muolajalar o'tkazilganda xavfsizlikni ta'minlash tartiblari yoritib berilgan.

"Radiatsiyaviy avariya sodir bo'lganda radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash"ni IV bo'limdagi 23-25-moddalar bayon etadi. Bu bo'limda fuqarolar va atrof muhit radiatsiyaviy avariylardan muhofaza qilinishlari shartligi (23-modda) bildirilgan va ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanuvchining avariya sodir bo'lgan paytdagi majburiyatlari (24-modda) keltirilgan.

V bo'lim – "YAkuniy qoidalar" xalqaro shartnomalar, nizolarni hal etish va qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka bag'ishlangan.

Oxirgi vaqtlarda yuzaga kelgan ayrim vaziyatlar respublikamiz hududida terroristik harakatlar ham sodir bo'lishi mumkinligini ko'rsatib berdi. Respublikamiz hukumati aholi

xavfsizligini ta'minlash uchun 2000 yil 15 dekabrda "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" maxsus qonunni qabul qildi.

Qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lib, asosiy vazifalari etib shaxs, jamiyat va davlatning terrorizmdan xavfsizligini ta'minlash, davlatning suverenitetini va hududiy yaxlitligini qimoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat.

Qonun "Umumiy qoidalar", "Davlat organlarining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vakolatlari", "Terrorchilikka qarshi operatsiyaning o'tkazilishi", "Terrorchilik harakati oqibatida etkazilgan zararni qoplash va jabrlangan shaxslarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi" hamda "Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan shaxslarning huquqiy va ijtimoiy qimoyasi" deb nomlanuvchi V bo'limdan iborat bo'lib, 31 moddani o'z ichiga oladi.

Terrorizmga qarshi kurashni amalga oshirishda davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar ko'maklashishlari zarurligi 6-moddada belgilab berilgan.

Terrorizmga qarshi kurashishni O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita, Davlat bojxona qo'mitasi, Mudofaa hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi amalga oshiradi (8-modda). Jumladan, Favqulodda vaziyatlar vazirligi favqulodda vaziyatlardan aholini muhofaza qilish, terrorchilar harakat qilayotgan zonada joylashgan alohida muhim, toifalangan va boshqa ob'ektlar barqaror ishlashini, shuningdek terrorchilik oqibatlarini tugatish yuzasidan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat Hokimiyati organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda tadbirlar o'tkazadi hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi (14-modda).

O'zbekiston Respublikasi 2006 yil 28 sentyabrda "Xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarini sanoat xavfsizligi to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun 23 moddadan iborat bo'lib, maqsadi xavfli ishlab chiqarish ob'ektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Respublikamiz hukumati tomonidan Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil topgan kundan e'tiboran aholi xavfsizligini kafolatlovchi, fuqarolar mas'uliyati va jamiyat taraqqiyotining huquqiy zaminini belgilovchi bir qancha rahbar va me'yoriy hujjatlar qabul qilindiki, ular o'z navbatida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni oydinlashtirib berishga qaratilgandir. Bu hujjatlar jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va favqulodda vaziyatlar vazirining qabul qiladigan tashkiliy ko'rsatmalari ham kiradi.

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Qarorlari*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil

11 aprelda qabul qilingan 143-sonli "O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi qarorida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risidagi Nizom va uning tuzilmasi to'g'risida so'z yuritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi avariylar, halokatlar va tabiiy ofatlar tufayli vujudga kelgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi ishlarga rahbarlikni hamda ularni muvofiqlashtirib borish ishlarini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Vazirlik tarkibida Vazir (hay'at raisi), lavozimi bo'yicha vazir o'rinbosarlari, vazirlikning hamda unga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, shuningdek, boshqa vazirliklar va idoralarning rahbar xodimlari asosida faoliyat olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 24 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 242-sonli qarori qabul qilindi. FVDT boshqaruv organlari, respublika va mahalliy hokimiyat organlarini, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalarini hal etish vakolatiga kiradigan korxonalar va muassasalarning kuch va vositalarini birlashtiradi hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, ular yuzaga kelganda aholi xavfsizligini, atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda tinchlik va harbiy davrda davlat iqtisodiyotiga zararni kamaytirishni ta'minlashga mo'ljallangan.

Qarorda FVDTning vazifalari, tarkibiy tuzilmasi, FVDT rahbar va kundalik boshqaruv organlari, kuch va vositalari, moliyaviy va moddiy resurslar zahiralar, xabar berish, aloqa, boshqaruv tizimlari, faoliyat rejimlari keng, aniq va ravshan yoritib berilgan. FVDT boshqaruv organlarining respublika, mahalliy va ob'ektlar darajasidagi vazifalari belgilangan. Qarorga FVDT funksional quyi tizimini tashkil etuvchi vazirlik va idoralar ro'yxati ilova qilingan bo'lib, ulardan har birining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi funksiyalari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrdagi 455-sonli "Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarni tasnifi to'g'risida"gi qarorida mamlakatimiz hududida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan barcha favqulodda vaziyatlar kelib chiqish xarakteriga va o'lchamlariga ko'ra tasniflab berilgan.

Favqulodda vaziyatlar xarakteriga ko'ra tabiiy, texnogen va ekologik hamda o'lchamiga ko'ra lokal, mahalliy, respublika va transchegara favqulodda vaziyatlarga bo'linadi.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimida kadrlar tayyorgarligi masalasi muhim o'rin tutadi.

Aholini va rahbarlar tarkibini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash masalalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 20 oktyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida"gi 427-sonli qarorida bayon qilib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda, shuningdek yashash joyida ularning yoshlari va ijtimoiy guruhlari bo'yicha o'tkazilishi lozim.

Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo'yicha tayyorgarlikdan o'tgan fuqarolarimiz muhofazalanishning qoidalarini, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullarini, jamoa va yakka tartibdagi muhofaza vositalaridan foydalanish qoidalarini bilishlari zarur.

Aholini favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilishga tayyorlash uchun Favqulodda vaziyatlar vazirligi bir nechta vazirliklar - Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda faoliyat ko'rsatishib kelmoqda. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi bilimlar aholi o'rtasida keng tashviqot qilinishi, o'quv dasturlari ishlab chiqilishi, o'quv qo'llanmalari, darsliklar tayyorlanishi talab etiladi.

Tayyorgarlik ishlarini olib borishni samarali tashkil etish maqsadida har bir o'quv yiliga tashkiliy ko'rsatmalar qabul qilinadi. Unda umumiy o'rta ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, oliy o'quv yurtlari, korxona, tashkilot va muassasalarda, shuningdek aholi manzilgohlarida alohida dastur asosida tayyorgarlik ishlari olib borilishi zarurligi ta'kidlanib, o'rganilishi lozim bo'lgan mavzularning taxminiy ro'yxatlari keltiriladi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil topgunga qadar ham aholi salomatligini ta'minlash, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalariga katta ahamiyat berilgan. Bu borada respublikamiz hukumati tomonidan bir nechta qarorlar qabul qilingan.

Ulardan biri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1994 yil 12 aprelda qabul qilgan "Toshqin, sel oqimlarini oqizib yuborish va ko'chki hodisalari bilan bog'liq bo'lgan halokatli oqibatlarining oldini olish hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 201-sonli qaroridir.

Ma'lumki, har yili sel, toshqin, o'pirilish va ko'chkilar tufayli yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlar katta vayronagarchiliklarga sabab bo'ladi, respublika iqtisodiyotga jiddiy zarar etkaziladi, ba'zan esa odamlarning o'limiga sabab bo'ladi. Sel, toshqin oqimlarini talafotsiz oqizib yuborish, ko'chki hodisalarining oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish

maqsadida joylarda tabiiy ofatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish, shuningdek, odamlarning to'liq xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil etish uchun shaxsiy javobgarlik viloyatlar, shaharlar, tumanlar hokimlari, vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining zimmasiga yuklanadi.

Bugungi kunda, sel va suv toshqinlarini oldini olish bilan bog'liq mamlakatimizning normativ-huquqiy hujjatlaridan eng asosiylaridan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 19 fevral "Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va er ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi 585-sonli qarori xizmat qilmoqda.

Joylardagi imkoniyatlardan biri-muqobil xizmatchilar hisobiga ixtiyoriy avariya-qutqaruv tuzilmalarini tashkil qilish, ularni zarur kiyim-kechak, asbob-uskunalar bilan ta'minlash va umuman moliyaviy, moddiy-texnik zahiralarni to'plash ishlarini tashkil qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Hal qilinmagan muammolar qatoriga:

- ko'chki va toshqin xavfli hududlaridan aholini ko'chirish;
- sel kelishi holatlarini oldindan bilish;
- xavfli joylarda yangi qurilishga yo'l qo'ymaslik;
- rahbar xodimlarni va aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash va shu sharoitlarda xavfli joylarda yashayotgan aholimizni ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida sug'urta tizimlaridan to'la darajada foydalanish muammolari kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yilning 18 yanvarida "O'zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 32-sonli qarori ushbu maqsadlarda samaradorlikni oshirish, shuningdek aholi yashash joylarida it, mushuk va boshqa uy hayvonlarini saqlashni tartibga solish maqsadida qabul qilingan.

Qarovsiz qolgan it, mushuk va boshqa hayvonlarni tutish hamda qirib tashlash va ularni tayyorlov tashkilotlariga foydalanish uchun etkazib berish vazifasi shaharlarda -O'zbekiston Respublikasi Kommunal xizmat ko'rsatish vazirligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga hamda O'zbekiston Respublikasi Kommunal xizmat ko'rsatish vazirligining joylardagi korxonalariga, qishloq joylarda - O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga, uning veterinariya xizmati organlariga, o'zini-o'zi boshqarishning mahalla, ovul va shaharcha organlari (fuqarolar yig'ini)ga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2003 yil 13 yanvardagi "Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 15-sonli sonli qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlar o'tkazilishi paytida jamoat xavfsizligini ta'minlash va tartibni muhofaza qilish maqsadida qabul qilingan.

Davlat standartlari. O'zbekiston Respublikasi aholisini va iqtisodiyot ob'ektlarini tabiiy hamda texnogen xususiyatli turli halokatlardan muhofaza qilish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli tadbirlar orasida huquqiy-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va qayotga tadbiq etish hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Mana shunday muhim hujjatlardan biri Davlat standartlari hisoblanadi.

Davlat standartlari tashkilotlar, muassasalar, idoralar va ilmiy dargohlarda ish yuritish, amalda qo'llash bo'yicha favqulodda vaziyatlarning yagona tizimiga asos yaratadi. Fuqaro muhofazasi instituti xodimlari tomonidan bir nechta standartlar tayyorlangan:

1. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Asosiy tushunchalarning atamaları va ta'riflari".
2. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Tabiiy favqulodda vaziyatlar. Atamalar va ta'riflar".
3. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Texnogen favqulodda vaziyatlar. Atamalar va ta'riflar".
4. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Favqulodda vaziyatlar monitoringi va bashoratlash. Atamalar va ta'riflar".
5. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Favqulodda vaziyatlar monitoringi. Asosiy qoidalar".
6. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Texnogen favqulodda vaziyatlar manbalari. SHikastlovchi omillar va ular ko'rsatkichlarining tasnifi va nomenklaturasi".
7. "Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Tabiiy favqulodda vaziyatlar manbalari. SHikastlovchi omillar. SHikastlovchi ta'sir ko'rsatkichlarining nomenklaturasi".

Barcha davlat va nodavlat tashkilotlari joriy hujjatlarini ishlab chiqilgan standart talablari asosida muvofiqlashtirishlari va ularga tayanib ish yuritishlari talab qilinadi.

#### **O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri-Fuqaro muhofazasi boshlig'ining normativ-huquqiy hujjatlar**

Inson, hujjat, axborot, boshqarishning barcha pog'onalarini, shu kabilar ish yuritishning ajralmas qismidir. Ijtimoiy, siyosiy va turli soha rahbarlari ish yuritishda oqilona va samaralisi normativ-huquqiy hujjatdir. Mukammal va oqilona tashkil etilgan norma ijodkorligi har qanday davlat boshqaruvi organlarida ish yuritishning asosi hisoblanadi.

Fuqaro muhofazasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar FVDT va fuqaro muhofazasi tuzilmalariga vazifalarni belgilab berish bilan bir qatorda ularni favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yuzaga kelganda bartaraf etish bo'yicha vazifalarni o'zida aks ettiradi. Eng asosiysi, insonlar hayot faoliyatiga jiddiy shikastlar va tabiiy ofatlar ta'sirini oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni mustahkamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi qonun asosida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga rahbarlik qilish vakolatli davlat organlariga vazifalar belgilab berilgan. Ushbu qonunning II bobi Fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, davlat organlari va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi sohasidagi vakolatlari keltirib o'tilgan. Qonunning 6-moddasida "Fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish" deb nomlanilgan hamda O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasiga umumiy rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshirish belgilab berilgan. SHuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri mamlakat fuqaro muhofazasining boshlig'i etib belgilab berilgan. Qolversa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hududlarida fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilishni tegishincha lavozimiga ko'ra fuqaro muhofazasining boshlig'i bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari amalga oshirishi nazarda tutilgan.

Fuqaro muhofazasi boshlig'i o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

fuqaro muhofazasining tegishli rejalarini amalga joriy etish;

aholini, moddiy va madaniy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

fuqaro muhofazasi bo'yicha direktivalar, buyruqlar, qarorlar va farmoyishlar chiqarish;

o'z tasarrufidagi hududlar hamda tashkilotlarning kuchlari va vositalarini fuqaro muhofazasi sohasidagi tadbirlarni o'tkazishga jalb etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Fuqaro muhofazasi boshliqlarining aholini va hududlarni muhofaza qilish masalalari bo'yicha direktivalari, buyruqlari, qarorlari va farmoyishlari barcha tashkilotlar, shuningdek mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiyligi belgilab berilgan.

Aholini va hududlarni zamonaviy qirg'in vositalari qo'llanilishi oqibatlaridan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi sohasidagi tadbirlarni amalga oshirishga oid harakatlarni muvofiqlashtirish tegishli hududlar, tarmoqlar va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi boshliqlari zimmasiga yuklanadi.

Fuqaro muhofazasi tomonidan qabul qilinadigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar hududdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish, moddi-ma'naviy boyliklarni asrash, aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va harbiy davrlarda muhofaza qilish uchun xizmat qiladi.

Fuqaro muhofazasi boshlig'ining ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilab berilgan vazifa hamda topshiriqlar hududiy davlat va xo'jalik boshqaruv organlari hamda fuqarolar uchun majburiy hisoblanadi.

**XULOSA.** Fuqaro muhofazasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar tarkibiga favqulodda vaziyatlarning oldini olish chora-tadbirlari, favqulodda vaziyatlarni o'z vaqtida monitoring qilib borish, fuqaro muhofazasi ishlariga jalb etiladigan kuch va vositalarni doimiy shayligini ta'minlash hamda nazorat qilishni joy olgan bo'ladi. Bundan tashqari aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, boshqaruv organlari va xizmatlarni favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash, o'rgatish, shuningdek tashkiliy masalalarni o'zida mujassam etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yuzaga kelganda bartaraf etish uchun tadbirlar majmuini oldindan ishlab chiqish va ularni bajarish uchun mas'uldir. Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen ofatlardan muhofaza qilishda normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi favqulodda vaziyatlarning oldini olishning dastlabki va samarali bosiqichi hisoblanadi.

"Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar yakuni va \_\_\_\_ yil uchun belgilangan vazifalar to'g'risida" (keyingi o'rinda Asosiy tadbirlar rejasida deb yuritiladi) Fuqaro muhofazasi boshlig'ining buyrug'i.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri-Fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan har yili, yil boshida ushbu hujjat qabul qilinadi va joylardagi Fuqaro muhofazasi boshliqlariga ijro uchun yuboriladi. Asosiy tadbirlar rejasida yil mobaynida davlat va xo'jalik boshqaruv organlari hamda ularni funksional quyi tizimlari korxona va tashkilotlarda o'tkaziladigan favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlar rejasini o'z ichiga oladi.

Asosiy tadbirlar rejasini maqsadi, FVDT uning funksional va hududiy quyi tizimiga kiruvchi idora va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularning oqibatlarini bartaraf etish, aholini, shuningdek hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, FVDTning boshqaruv organlari hamda

kuch va vositalarining tayyorgarligini ta'minlash hamda aholini favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda to'g'ri xarakat qilishni o'z ichiga oladi.

Asosiy tadbirlar rejasiga quyidagilar ilova qilinadi:

- favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va harakat qilish davlat tizimining boshqaruv organlari, kuchlari va aholini tayyorlash bo'yicha joriy yil uchun tashkiliy ko'rsatmalar;
- aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha FVDTni viloyat hududiy quyi tizimining joriy yil uchun asosiy tadbirlar;
- viloyat, shahar va tumanlarda hamda korxona, tashkilot va iqtisodiyot ob'ektlarida joriy yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan o'quv mashg'ulotlar reja-jadvali;
- Fuqaro muhofazasi instituti va viloyat FVB Aholi va rahbarlar tarkibini tayyorlash markazida fuqaro muhofazasi sohasi bo'yicha ob'ekt xodimlarini tinglovchilar bilan jamlash o'z ichiga olgan bo'ladi.

